

**QO‘QON AREALI FOLKLORI MATERIALLARIDA UMUMTURKIY
SO‘ZLARNING AKS ETISHI.**

Mastura Sotvoldiyeva

(Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Annotatsiya

Maqolada Qo‘qon areali folklori materiallarida umumturkiy so‘zlar tahlil qilinadi. Har bir hududning o‘ziga xos shevasi va nutqida o‘sha hududga tegishli bo‘lgan leksemalari mavjud bo‘lib ular shevaning hayotiy zarur so‘zlarini qamrab oladi. Qo‘qon arealidagi shevalarning lug‘at tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so‘zlar, fors(tojik), arab va kamroq bo‘lsada rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar tashkil qiladi. Ushbu maqolada umumturkiy so‘zlardan misollar yoritiladi.

Kalit so‘zlar

yor-yor, savog‘, singlim, sux, shona, qiyqim alay-alaychi.

Annotation

The article analyzes the generalturkish words in the folklore materials of the Kokand region. Each region has its own dialect and speech, which includes lexemes belonging to that region, which include the vital words of the dialect. A significant part of the vocabulary of the dialects of the Kokand region consists of generalturkish words, words borrowed from Persian (Tajik), Arabic, and lesser extent, Russian. This article highlights examples of generalturkish words.

Keywords

yor-yor, savog', singlim, sukh, shona, kiykim alay-alaichi.

Аннотация

В статье анализируются общетюркские слова в фольклорных материалах Кокандской области. Каждый регион имеет свой диалект и говор, включающий в себя лексемы, принадлежащие данному региону, в число которых входят и основные слова диалекта. Значительную часть лексики говоров Кокандской области составляют общетюркские слова, слова, заимствованные из персидского (таджикского), арабского и, в меньшей степени, русского языков. В статье приводятся примеры общетюркских слов.

Ключевые слова

ёр-йор, савог, синглим, сух, шона, гивким алай-алайчи.

Umuturkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. Umuturkiy so‘zlar turli sohalarga oid bo‘lib, ularga narsa, shaxs, belgi,

miqdor, harakat, his-tuyg`u bildiradigan soʻzlar kiradi: Masalan: kishi, oyoq, qoʻl, bosh, koʻz, qosh, qizil, koʻk, yashil, oq, bir, ikki, uch, toʻrt, oʻn, kel, tur, yot, oʻtir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi. Oʻzbek shevalari oʻzbek tilining mahalliy koʻrinishi sifatida undagi mavjud boʻlgan aksariyat qatlamlarni oʻzida birlashtiradi. Umumturkiy soʻzlar aksariyat turkiy tillarda va shevalarda qoʻllanadi hamda ular oʻzbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin yoki kuchli va kuchsiz fonetik oʻzgarishga uchrashi ham mumkin. Bunga yer, suv, ish va boshqa turli sohalarga oid soʻzlar taalluqlidir. Shevalar lugʻat tarkibining salmoqli qismini umumturkiy soʻzlar tashkil qiladi. Oʻzbek shevalarida turkiy leksik qatlam oʻzlashtirilgan leksik qatlamga nisbatan koʻpchilikni tashkil qiladi.

Umumturkiy soʻzlar barcha turkiy tillarda va shevalarda qoʻllanadi hamda ular oʻzbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzni saqlashi ham mumkin, yoki kuchli va kuchsiz fonetik oʻzgarishlarga uchrashi mumkin. Shevalarning lugʻat tarkibining salmoqli qismini umumturkiy soʻzlar tashkil etadi. Turkiy tilning butun boyligi va goʻzalligini ochib berishga qaratilgan Navoiyning “Muhokamat ul lugʻatayn” asarida “Andin soʻngrakim, turk tilining jomeʼyati muncha daloil bila sobit boʻldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo boʻlgʻon tab ahli salohiyat va tablarin oʻz tillari turgʻon oʻzga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkala til bila ozroq aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi”¹ deya turkiy til bilan ijod qilishni yuksak baholagan.

Quyidagi Qoʻqon arealidan yozib olingan “Yor-yor” tarkibidagi umumturkiy leksikani aniqlashga harakat qildik:

Jārni-jārni-jā avval bāši jā Bismillā,
 Ha jār-jār-hā jā Bismillā.
 Ortamizda turadi-jā-hā Kalāmullā,
 Ha jār-jārā-hā Kalāmullā.
 Hazrat Bilāl dedilar-ā ajā Zahrā,
 Ha jār-jārā-hā ajā Zahrā.
 Juz miñ tillāni sāldig-ā haqīñizga,
 Ha jār-jārā-hā haqīñizga.
 Bi Fātima dedilar-ā man ālmasman,
 Ha jār-jārā-hā man ālmasman,
 Zarra ālib savdāga-yā-hā man bārmasman,
 Ha jār-jārā-hā man bārmasman.
 Hazrat Bilāl dedilar-ā ayā Zahrā,
 Ha jār-jārā-hā ajā Zahrā.
 Toqqiz falakni sāldig-ā haqīñizga,
 Ha jār-jārā-hā haqīñizga,

¹ Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lugʻatayn. –Toshkent, 2017.

Bi Fātima dedilar-ā man ālmasman,
 Ha jār-jārā-hā man ālmasman,
 Sanā ajtar farishtalar-ā man emasman,
 Ha jār-jār-ā-hā man emasman.
 Aravaga šāx bāsdim-ā julduz bojli,
 Ha jār-jār-ā-hā julduz bojli,
 Qizimizni sorasangiz-ā suqsur bojli,
 Ha jār-jār-ā-hā suqsur bojli.
 āsmāndagi yulduzlarni sakkiz deŋlar,
 Ha jār-jār-ā-hā sakkiz deŋlar.
 Sakkiz qizlar sardārini-jā kelin deŋlar,
 Ha jār-jār-ā-hā kelin deŋlar.
 Sakkiz qizni sardāri-jā biz bolamiz,
 Ha jār-jār-ā-hā biz bolamiz,
 Savāg‘idan-ā āčilgan-ā-hā gul-lālamiz,
 Ha jār-jār-ā-hā gul-lālamiz².

Soxsr- Suqsur, o‘rdaksimonlar oilasiga mansub patlari uzun va ingichka qush. Suqsur bo‘yli deb kelinning bo‘ylari novcha va nozik ekanligiga ishora. Oldingi vaqtlarda kelin bilan kuyov to‘ydan avval ko‘rishmagan faqat to‘y kuni korishgan ungacha ham kuyovning yaqinlariga ham maqtab kuyovga ham kelinni ta‘rifini berib o‘tilmoqda. *Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur uchirdim(Alpomish)*. Suqsurday bola, suqsurday qiz iborasi ishlatiladi. Misolda ham yorning go‘zalligi tasvirlangan.

Savog‘- gulning bandidan ochilgan qismi. *Savog‘idan ochilgan gulday bo‘lib*(yor-yor). Kelinning ta‘rifida ishlatiladigan ushbu so‘z yangi ochilgan gulday sifatlashini bermoqda.

Jār-jār

Haj-haj olan-ej žon olan, olančimana jār-jār ,
 Olan ajtgan tilginaŋajo sorāqčimana jār-jār.
 Payg‘ambarniŋej qizini Ali olganej jār-jār,
 Olan ajtiš dostlar qaraŋ, shundan qālg‘ānej jār-jār.
 Jār-jārni biz aytamiz, birday qiliba jār-jār,
 Šānasida āčilgan-ej gulday qiliba jār-jār.
 Šildir-šildir qamišga sirg‘am tušdiya jār-jār,
 Sinalamagan jigita-yā, sijnim tušdiya jār-jār³.

Šānasi- shonasi, turkiy so‘z bo‘lib, gulning shoxi, ot so‘z turkumi. Kelinning go‘zalligini tasvirlashda qo‘llangan bo‘lib, yangi ochilgan gulday tashbehidan foydalanilgan.

² Axborotchi: Mahbubaxon Yuldasheva No‘monjon qizi, 1968-yil. O‘zbekiston tumani, 26.03.2024.

³ Axborotchi: Toshxon xola.55 yosh. O‘zbekiston tumani, Shakarobod qishlog‘i. 02.08.2024

Sijnim- singlim, turkiy soʻz boʻlib qarindoshlikni ifodalovchi soʻz. Qoʻqon arealida ushbu soʻz fonetik oʻzgarishga uchragan tarzda qoʻllanmoqda.

Qizil gul

Qāshīn bilan koziḡni savlati bārdir-ā savlati bārdir,
Sani ālgan jigitni davlati bārdir-ā davlati bārdir.
Sani ālgan bilan āldim dejarmi, qollaringda chāy ichib,
Qāndim dejarmi-yā, qāndim dejarmi?
Qizil gul āčilar gʻunčada-gʻunča-yā, gʻunčada-gʻunča,
Sabr etiḡ ānājān āčilgunimča-yā, āčilgunimča,
Sabr etsaḡ ānāzān āčilgunimča, āčilgunimča
Davriḡizda men ojnaj, tā olgunimča-yā, tā olgunimča.
Girbišinni kiyāvir, šabadada jurāvir,
Jāriḡni šopir qilib, jānlarida jurāvir.
Ajagʻimda tobliča gʻarči bolsa juraman,
Har iš bolsa Xudodan, pešānamdan koraman.
Tilajman dāimo umur, ānāzonim salomat boḡ,
ānadej mehribān bārmi, ātadej gʻamguzār bārmi,
Qulāq sālgīn ānāzānim, sapar ketgan bālaḡ keldi.
Qalandar bāgʻiga kirsam, qalandar demadi heč kim,
Ujimizga kirib bārsam, kel bālam dimejdi heč kim.
Bāšim ālib ketgan zāj tāšdanam qattiq, ānam bergan āq suti asaldan ārtiq,
ānam bergan āq sutga rāzilar bosin, u dunyāga bārganda azābi qattiq⁴.

Ushbu qoʻshiqda umumturkiy soʻzlarning sheva variantlari keng qoʻllangan. Ularning asosiy xususiyati fonetik oʻzgarishlar bilan talaffuz qilinadi. Biz shu soʻzlarning baʼzilarini tahlil qilishga harakat qildik.

Ajagʻ-oyoq Inson tana aʼzosi. Umumturkiy soʻzlardan boʻlib, singormonizm hodidasiga amal qiladi.

Boḡ- boʻling, buyruq maylidagi feʼl fonetik oʻzgarishga uchragan.

Soxsir bojli keliḡajo sox tejmasin, ha jār-jār sox tejmasin.

ābtāvāga suv kojdimā toldi-tāšdi, ha jār-jār toldi-tāšdi.

Kelin ukam uzoqqa berdim oldi-qāčdi, ha jār-jār oldi-qāčdi.

Uzāqqa qiz bergandijā raḡi sariq, ha jār-jār raḡi sariq.

Soʻx teymasin-suq tegmasin. Suq-oʻzganing ovqatiga olib yeyish istagi bilan tikiluvchi, ochkoʻz⁵. *Suq toʻymas oʻgʻri boyimas*. Qadimgi turkiy tilda qam shunday maʼnoni anglatgan. Bu sifat dastlab soq, keyinchalik suq tarzida talaffuz qilingan(Devon,III,508).

Aziz bāšim xor boldi gullāla.

⁴ Axborotchi: Soraxon xola. Oʻzbekiston tumani. Tagob qishlogʻi. 22.03.2023

⁵ Oʻzbek tilining etimologik lugʻati.(-jild).

Ana gullāla, mana gullāla hāy bāla,
Aklas kojlak qijqimi, jigitlarniñ šilqimi,
Salom, salām jor-jor kelin salom jār-jār,

Qijqim- matoni, qogʻozni kesganda hosil boʻladigan mayda-chuyda chiqindi.

Mohir bichiqchi qiyqimni ham oz chiqaradi.

Xalq laparlari.

ālay-ālaychi keldi, kočaga mojči keldi,
Savatčasin kotaribā qizlarga sāvči keldi.
Šāda-parañ romāli šabādada učadi,
Fargʻānamni qizlariyā atlas kojlak kiyādi.
Osma ekilmasmidi, tagi čāpilmasmidi,
Šāšmay turiñ akajānā teñiz topilmasmidi.

ālay-ālaychi-sotuvchi, koʻchada mato, mayda mahsulotlarni uyma-uy kirib sotib chiquvchi hammol. Bunday sotuvchilar oʻtgan arsdā ancha keng faoliyat yuritgan boʻlib bugungi kunga kelib deyarli savdo qilmay qoʻydi, ularning oʻrnini savdo doʻkonlari egalladi

sāvči- turkiycha, uylanuvchi yigit tomonidan biror xonadonning voyaga yetgan qizini koʻrishva uni kelin qilib berishga qiz tomoni roziligini soʻrash uchun vakil qilingan kishi. *Yaxshi otga qamchi kerakmas, yaxshi qizga-sovchi.*

āsmāndagi yulduzdek, qāš-kozlari qunduzdek,
āšga tushgan ilikdek, qoš-kozlari pilikdek,
Hārmañ endi ammajānlar sizlarga salām jār-jār, yana bir salām jār-jār,
Hāvlisida tāli bār, lablarida bāli bār,
Hārmañ endi hālajonlari sizlarga salām jār-jār, yana bir salām jār-jār.

Pilik-bir uchi yoritqich uchidagi kerosinni yoki moyni shimib, ikkinchi yonuvchi uchiga oʻtkazib beradigan lentasimon mato yoki eshilgan paxta. *Moyi tugab, piligi soʻxta boʻlgan chiroq lip etib soʻndi.* (S.Ahmad, Hukm). Ushbu kelin salomda qosh, kiprikni boʻyash uchun ishlatiladigan, uchiga paxra oʻralgan choʻpga ishora qilmoqda. *Satimxonning qoʻshnlar bila totuvlashib olganini aytmysizmi- bir piyola ketidan oʻsma qoʻyib, bir pulikdan surma tortganday.* (Shuhrat, Umr pogʻonalari).

Jār-Jār

Hay-hay olan zānim olan, olanči qiz,
ha yār-yāra olanči qiz,
Vaʼdasida turmagano yālgʻānči qiz,
Ha yār-yāra yālgʻānči qiz,
Uzun-uzun argʻamchiyey halinčakka,
Ha yār-yāra halinčakka,
Atlas koʻylaklar yarāshadi-yā kelinčakka,

Ha yār-yāra kelinchakka⁶.

Halinčak-bolalar uchishi uchun moʻjallangan hovlida daraxtga bogʻlangan eshilgan yoyiq arqon. Oychinor yuzini suvga yib, halinchakni archaga osib.. halinchak ucha boshladi.(“Oysuluv”)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki hech bir til yoʻqki boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirmagan. Tillar oʻzaro aloqada boʻlar ekan bir-biridan “soʻz olib soʻz beradi”. Shunga koʻra til leksikasi tarkibi tekshiriladi. Qaysi tillardan qanchalik soʻz oʻzlashtirilganligi qiymati oʻlchanadi. Qoʻqon areali folkloridaham oʻzlashgan soʻzlar uchraydi. Umumturkiy soʻzlar folklor tarkibida baʼzan fonetik oʻzgarishga uchragan holda talaffuz qilinadi baʼzan oʻz holicha talaffuz qilinadi va asosan koʻp maʼnoli soʻz sifatida qoʻllaniladi. Qoʻqon areali folklori tarkibida fors-tojik va arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar ham uchraydi. Oʻzbek tiling tarixiy taraqqiyot davrida bu tillar bilan munosabatga kirishgan va soʻz oʻzlashtirish keng boʻlgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.Ю.Алиев. Наманганская группа говоров узбекского языка. –Ташкент.
2. Г. Садвакасов. Язык уйгуров Ферганской долины. 1976
3. Alaviya. M. Oʻzbek marosim qoʻshiqlari. –Toshkent, 1972. –B.49
4. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2021. 38-39 betlar
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. –Тошкент : фан, 1987.
6. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка: учебное пособие. /2-е издание, переработанное. – Москва: ФЛИНТА: Наука, 2012.
7. Begaliyev M.Q. Oʻzbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi. –Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.

⁶ Axborotchi: Soraxon xola. Oʻzbekiston tumani. Tagob qishlogʻi. 22.03.2023